

UYUSHGAN JINOYATCHILIK TO'DALARI TARIXI, ZAMONAVIY KO'RINISHLARI VA IJTIMOIY-IQTISODIY OQIBATLARI

Adham Mavlonov

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasи, katta o'qituvchi.*

Safixon Mirzohidov

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali, kunduzgi ta'lim, tarix
(mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) fakulteti, 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada uyushgan jinoyatchilikning globalizatsiyasi va uning ijtimoiy hamda iqtisodiy oqibatlari tahlil qilinadi. Maqola xalqaro narkotrafik, odam savdosi, qurol savdosi kabi global jinoyatchilik tarmoqlarining shakllanishi va kiber jinoyatchilikning rivojlanishi kabi mavzularni qamrab oladi. Shuningdek, uyushgan jinoyatchilikning jamiyatdagi madaniyat, axloq va ijtimoiy tuzilishga ta'siri, korruptsiya, noqonuniy iqtisodiyot va moliyaviy firibgarlik kabi iqtisodiy oqibatlari ham yoritiladi. Bu jinoyatchilik tarmoqlarining xalqaro xavfsizlik va barqarorlikka tahdidi ko'rib chiqilib, uni bartaraf etish uchun takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'z: Uyushgan jinoyatchilik, Baron, Vor zakone, Yakuza, globalizatsiya, xalqaro narkotrafik, odam savdosi, qurol savdosi, kiber jinoyatchilik, kiberhujumlar, darknet, ijtimoiy ta'sir, madaniyat, axloq, ijtimoiy tuzilma, korruptsiya, noqonuniy iqtisodiyot, moliyaviy firibgarlik, raqamlı davr.

Uyushgan jinoyatchilik guruhlari jamiyatda keng tarqalgan va murakkab ijtimoiy hodisalardan biridir. Ushbu guruhlar o'z maqsadlariga erishish uchun noqonuniy faoliyatlar orqali iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tizimlarga ta'sir ko'rsatadilar. Ularning tashkilot tuzilishi va faoliyat usullari milliy va xalqaro miqyosda xavfsizlikka jiddiy tahdid soladi. Shunday ekan uyushgan jinoyatchilik to'dalari qanday ma'no anglatadi? Ikki yoki undan ortiq shaxsning birlashtirishida jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashishi uyushgan guruh deb topiladi. Ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun oldindan birlashishi jinoiy uyushma deb topiladi.¹ I.V. Godunov uyushgan jinoyatchilikni "jinoiy yo'llar bilan boyish maqsadida jinoiy va kasbiy asosda ko'plab jinoyatlar sodir etish ko'rinishidagi doimiy xarakterdagi uyushgan jinoiy faoliyatdan iborat salbiy ijtimoiy hodisa" deb

¹ УЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНинг жиноят кодекси
УМУМИЙ ҚИСМ. VII боб. Жиноятда иштирокчилик. 29-модда. Иштирокчиликнинг шакллари

hisoblagan.² Umuman olganda jinoyatchilikning eng xavfli turlaridan biri bu uyushgan jinoyatchilik bo‘lib, jinoyatchilikning bu turi har qanday davlatni va unda yashayotgan fuqarolarni xavfsizligiga tahdid soladigan asosiy xavflardan biri hisoblanadi. Shu sababdan har qanday davlat tomonidan uyushgan jinoyatchilikni tag tomiri bilan yo‘q qilish bo‘yicha keskin choralar belgilanmas ekan, mazkur davlatda fuqarolarning hukumatga nisbatan ishonchszligi ortib borishiga hamda davlatda korrupsiya, davlat va fuqarolar mulkini talon taroj qilinishi kabi salbiy holatlar kuchayib ketishiga va buning oqibatida davlat boshqaruv tizimi tanazzulga uchrashiga olib keladi.

Uyushgan jinoiy guruqlar, yetakchilarini turli hil jinoiy atamalar bilan atashadi. Masalan: "Baron" unvoni uyushgan jinoyatchilik guruqlarida kuchli va ta'sirli rahbarlarni ifodalaydi, ular o'zlarining jinoyat tarmoqlarini boshqarishadi va muhim rol o'ynashadi. **Baron** (yoki italiyacha "Barone") uyushgan jinoyatchilik guruqlarida yetakchi yoki muhim shaxsni ifodalovchi unvondir.³ Jinoyatchilik kontekstida "baron" odamlar, odatda, katta kuch va ta'sirga ega bo'lib, o'zlarining jinoyat tarmoqlarini boshqaradi.

Jinoyatchilikning dastlabki shakllari Antik davrga, xususan, Rim va Yunoniston davrlariga borib taqaladi. Bu davrlarda jamiyatda ijtimoiy tartibni buzuvchi turli jinoyatchilik guruqlari paydo bo'lgan. Ayniqsa, Rim imperiyasida banditlik va o'g'rilik keng tarqalib, ushbu guruqlar ko'pincha o'zaro til biriktirib, mahalliy aholi va savdogarlarga tahdid solganlar.⁴ Antik Yunonistonda esa, jinoyatchilik guruqlari ko'proq dengiz qaroqchiligi bilan shug'ullangan va savdo yo'llarida katta xavf tug'dirgan. Jinoyat javobsiz qolmaganidek, qadimgi Rim jamiyatida shaxslarga yetkazilgan zarar uchun jabrlanuvchi, uning ota-onalari, qavm-qarindoshlari bilan birgalikda zarar yetkazuvchidan o'ch olishgan.⁵ Jazo to'liq o'tatilgandan keyin jinoyatchi ikkinchi bor bunday jinoyat qilishdan saqlanishga harakat qilgan. Qadimgi Gretsiyada ko'pincha zahar ichib o'lish qo'llanilgan. Ayrim hollarda qilich va arqon berib ulardan birini tanlash imkonini berilgan.⁶ Qullarga keskin jazo berilgan, fuqaroga esa yengilroq jazo tayinlangan. Qadimgi Xitoyda ham yuqoridagi davlatlar kabi jinoyatchilik vaqt-vaqt bilan rivojlangan. Jazosi esa quyidagicha o'tatilgan: qasos olish, burnini kesish, olovda kuydirish, mayda bo`laklarga bo`lish, boshini kesish, tiriklayin yerga ko`mish, oyoqlarini, qo'llarini uzish, ko`zini o'yish jazolari

² Raximov , N. . (2023). UYUSHGAN JINOYATCHILIK TUSHUNCHASI VA UNGA QARSHI KURASHNING AYRIM MASALALARI. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(11), 77–80. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/23875>

³ Baldwin, Lida F. (1907). "Unbound Old Atlantics". *The Atlantic Monthly*. C (November 1907)

⁴ Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi –Haydarali Muhamedov. Toshkent-2005.

⁵ S. Isxakov, V. Topildiyev, A. Raxmanov. Rim huquqi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012, 161-bet.

⁶ Xamraqulov, Z. (2024). JINOYAT HUQUQI RIVOJLANISHINING IJTIMOIY-TARIXIY ASOSLARI. *Farg'onha Davlat Universiteti*, 30(3), 21. Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/3441>

qo'llanilgan.⁷ Yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari Qonunnomada tayoq bilan kaltaklash, qamchi bilan savalash, qulqlarini kesish va boshqa jazolar ham ko'rsatilgan.

O'rta asrlarda jinoyatchilik, asosan, feudal tizim va uning atrofida shakllangan ijtimoiy tartibsizliklar bilan bog'liq edi. Feodallar o'rtasidagi hududiy nizolar, kuchli askarlarga tayanib olib borilgan urushlar va xalqaro savdo yo'llaridagi xavf-xatarlar jinoyatchilikning turli shakllarini keltirib chiqardi.⁸ Ayniqsa, o'g'rilik va bosqinchilik guruhlari mahalliy aholini talon-taroj qilish bilan shug'ullangan, savdo karvonlari va qishloqlarni doimiy tahdid ostida ushlab turishgan. Ushbu davrda jinoyatchilik ko'pincha hukumatning beqarorligi va qonunlarning sustligi sababli keng tarqalgan edi. Vaqt o'tishi bilan qadimgi dunyo tarixidagi jinoyat uchun belgilangan jazolar yumshatila boshlandi. Birgina Rossiya misolida ko'radigan bo'lsak, 497 va 1550-yilda Sudebniklar qabul qilingan bo'lib, ular ushbu mamlakatdagi jinoyat huquqining rivojlanishiga katta turtki berdi. Sudebniklarda jinoyat tushunchasi takomillashtirildi. Qayta jinoyat sodir etganlik uchun jazo choralar kuchaytirildi. Bu narsa dehqonlarga asoratda saqlab turish uchun juda muhim asos vazifasini bajarib turgan edi. Rossiyaning jinoyat qonunchiligi Petr I, Yelizaveta Petrovna, Yekaterina II davrida yanada yuksaldi. Jumladan, Yelizaveta Petrovna davrida o'lim jazosini bekor qilishga harakatlar qilindi. Jinoyat huquqida insonparvarlik tamoyillari rivojlantirildi. Yekaterina II jismoniy azob berishga asoslangan jazolar sonini qisqartirdi. Bunday jazoni dastlab voyaga yetmaganlar, so'ngra dvoryanlarga nisbatan qo'llash bekor qilindi. Pavel I davriga kelib yoshi 70 dan oshgan jinoyatchilarga jismoniy azob berish chekka guberniyalarda ham tugatilgan edi.⁹

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Amerika Qo'shma Shtatlarida zamонавиу uyushgan jinoyatchilikning rivojlanishi sezilarli darajada oshdi. Bu davrda ko'plab Italiya va Irlandiyalik immigrantlar mamlakatga kelib, yangi hayot izlashgan. Ammolardan ba'zilari iqtisodiy qiyinchiliklar va ijtimoiy diskriminatsiya tufayli jinoyat olamiga kirib qolishdi. Ayniqsa, Italiya va Irlandiyaliklar orasida mafiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi AQShning yirik shaharlari, xususan, Nyu-York va Chikagodagi jinoyatchilik to'dalari shakllanishiga olib keldi.¹⁰ Bu to'dalar o'zlarining qat'iy ichki tuzilishi, kuchli ichki intizomi va korrupsiyalashgan amaldorlar bilan bog'lanishlari bilan tanilgan bo'lib, o'z faoliyatlarini kengaytirib bordilar. Sovet davrida uyushgan

⁷ Qurbonova Sevara. (2024). QADIMGI DUNYO DAVLATLARIDA JINOYAT HUQUQI. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSİYA JURNALI / JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION, 3(5), 101–104. Retrieved from <https://www.mudarrisziyo.uz/index.php/innovatsiya/article/view/897>

⁸ A. Mavlanov, & S. Mirzohidov (2024). THE CULT OF WATER IN THE ANCIENT BELIEFS OF THE UZBEKS OF THE FERGANA VALLEY. Science and innovation, 3 (C1), 5-7. doi: 10.5281/zenodo.10471818

⁹ Haydarov M.M. Tezkor-qidiruv faoliyatining tarixi va rivojlanish bosqichlari // Central Asian research journal for interdisciplinary studies.2022, No2, - B.244 / DOI: 10.24412/2181-2454-2022-2-242-249.

¹⁰ Albanese, Jay S. (2014). Paoli, Letizia (ed.). *The Italian-American Mafia*. Oxford University. doi:[10.1093/oxfordhb/9780199730445.001.0001](https://doi.org/10.1093/oxfordhb/9780199730445.001.0001). ISBN 9780199730445.

jinoyatchilik O'zbekiston va boshqa sobiq Sovet Ittifoqi respublikalarida o'ziga xos tarzda rivojlandi. Sovet Ittifoqi markazlashtirilgan va qattiq nazorat ostida bo'lismiga qaramay, 1970-1980 yillarda uyushgan jinoyatchilik to'dalari shakllana boshladi. Bu to'dalar ko'pincha qora bozor savdosi, kontrabanda va korrupsiya bilan shug'ullangan. Sovet tuzumining inqirozga uchrashi va iqtisodiy beqarorlik, ayniqsa, 1990-yillarda jinoyatchilik guruuhlarining yanada kuchayishiga va ularning siyosiy hamda iqtisodiy tizimlarga ta'sir o'tkazishga urinishlariga olib keldi. Misol tariqasida yozuvchi Tohir Malikning "Shaytanat" asari keltirilishi mumkin. Asar Toshkent shahrida sodir bo'layotgan jinoyatlarning murakkab tarmoqlari, jinoyatchilik dunyosidagi kuchli raqobat va korrupsiyaning ijtimoiy hayotga qanday ta'sir ko'rsatayotgani haqida hikoya qiladi.¹¹ "Shaytanat" trilogyasi o'zbek adabiyotida jinoyatchilik mavzusini badiiy jihatdan chuqur ochib bergen asarlardan biri sifatida tanilgan.

Yuqoridagi kabi va har qanday jinoyat turlari uchun o'rta asrlarga nisbatan jazolar kategoriyasi turlarga qarab yengillashtirildi ayrimlariga esa og'ir jazolar tayinlandi. Masalan : O'zSSRning jinoyat qonunchiligi 1959-yilga kelib yangilandi. Jinoyat kodeksi va Jinoyat-protsessual kodekslari qabul qilindi. Sotsialistik davr mafkurasiga asoslangan sobiq SSSR qonunchiligi ruhida qabul qilingan ushbu kodekslar anchagini qattiq jazolarni nazarda tutar edi.¹² Jumladan, Jinoyat kodeksining Maxsus qismidan o'rin olgan 30 ga yaqin jinoyatlar uchun, xususan, avtomobil o'g'irlaganlik uchun o'lim jazosining tayinlanishi joriy qilingan edi. 80-yillarga kelib sobiq Ittifoqda jinoyat qonunchiligini o'zgartirishga harakatlar boshlandi. Bu yangilanayotgan sovet respublikalarining talablariga javob beradigan kodeks bo'lishi taxmin qilindi.¹³ 1991-yilda SSSR davlatining barham topishi bu rejaning amalga oshishini to'xtatib qo'ydi.

XX asrning o'rtalaridan keyingi davrda turli mamlakatlarda uyushgan jinoyatchilik guruhlari keng rivojlandi. Bu guruhlар jamiyatda katta ta'sir o'tkazgan va ko'plab sohalarda o'z izlarini qoldirgan.

Yaponiyada **Yakuza** deb ataluvchi uyushgan jinoyatchilik guruhlari mavjud. Yakuza tashkilotlari 1600-yillarda paydo bo'lgan bo'lsa-da, XX asrning o'rtalarida ularning ta'siri yanada kuchaydi.¹⁴ Yakuza odatda qimor, giyohvandlik, o'g'irlilik, firibgarlik va shunga o'xshash noqonuniy faoliyat bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga, ular Yaponiyadagi ba'zi iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga ham aralashgan.

¹¹ Tohir Malik. Shaytanat. – Toshkent.: Hilol-nashr, 2017.

¹² Mavlonov, A. (2021, June). WATER CULT IN ANCIENT RELIGIOUS BELIEFS (Based on materials from the Fergana Valley). In Конференции.

¹³ Xamraulov, Z. (2024). JINOYAT HUQUQI RIVOJLANISHINING IJTIMOIY-TARIXIY ASOSLARI. *Farg'onha Davlat Universiteti*, 30(3), 21. Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/3441>

¹⁴ <https://www.britannica.com/>

Italiyada **Mafia** deb nomlanuvchi uyushgan jinoyatchilik guruhlari mavjud bo‘lib, ular asosan Sitsiliya orolida shakllangan.¹⁵ Mafiya XX asrning o‘rtalarida kuchayib, katta transmilliy jinoyatchilik tarmoqlarini tashkil qildi. Mafiya tashkilotlari o‘z ta’sirini korruptsiya, qotillik, tovlamachilik, kontrabanda kabi faoliyatlar orqali o‘tkazgan. Shu bilan birga, ular mahalliy aholi o‘rtasida ham qo‘rquv uyg‘otgan.

Rossiyada "**Vor zakon**" deb ataluvchi jinoyatchilik guruhlari mavjud bo‘lib, ularning ildizlari 20-asr boshlariga borib taqaladi. XX asrning o‘rtalaridan keyin, ayniqsa Sovet Ittifoqi davrida va undan keyin, "**Vor zakon**" guruhlari keng tarqaldi.¹⁶ Ular o‘ziga xos "vorovskoy kodeks"ga amal qilgan holda jinoyatlarni amalga oshirgan. Bu guruhlar asosan noqonuniy savdo, kontrabanda, qoradori savdosi kabi jinoyatlarda ishtirok etgan.

“Qonundagi o‘g‘rilar” (“Vory v zakone” yoki “zakonniki”) bu jinoyat olamining eng nufuzli qatlami bo‘lib, ular o‘z qonunlariga, ya’ni o‘g‘rilar qonuniga har qanday holatda ham og‘ishmay amal qiladigan odamlarni anglatadi. Ularning “vorovskoy kodeks” lariga quyidagilar kiradi:

- * **O‘g‘rilik g‘oyalariga sadoqat va qo‘llab-quvvatlash**
- * **Organ xodimlarining har qanday buyrug‘ini bajarmaslik, tergovlarda hech qachon ko‘rsatma bermaslik, aybni tan olmaslik**
- * **Siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanmaslik, harbiy tuzilmalarga qo‘silmalaslik**
- * **Panjara ortida o‘g‘rilar qonuni va mustahkam nazoratni o‘rnata bilish, ziddiyatlar, urushlarning oldini olish**
- * **O‘g‘rilar “obshchag”i, ya’ni o‘ziga xos umumiylig‘i aznani muntazam to‘ldirib borish va yig‘imlarni ham, xarajatlarni ham oqilona bajarish**
- * **Ota-onaga, ayniqsa, onaga hurmat**
- * **Ayollarni zo‘rlamaslik, zo‘rlaganlarga shafqat qilmaslik, shu bilan birga biror ayol bilan davomli munosabat o‘rnatmaslik**

Uyushgan jinoyatchilikning globalizatsiyasi XX asrning ikkinchi yarmida tezlashib, bugungi kunda transmilliy jinoyatchilik tarmoqlarining shakllanishiga olib keldi. Bu jarayon dunyo bo‘ylab iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, jinoyatchilik to‘dalarining xalqaro miqyosda faoliyat yuritishiga imkon berdi.

1.Xalqaro Narkotrafik

* Narkotrafik global miqyosdagi eng yirik va daromadli jinoyat tarmoqlaridan biri bo‘lib, turli mamlakatlardan kelib chiqadigan uyushgan jinoyatchilik guruhlari tomonidan boshqariladi. Lotin Amerikasidagi kartellar, Yaqin Sharqdagi giyohvand moddalar savdosi va Osiyodagi opiy plantatsiyalari orqali dunyo bo‘ylab narkotiklar

¹⁵ Paoli, Letizia, 'The Italian Mafia', in Letizia Paoli (ed.), *The Oxford Handbook of Organized Crime*, Oxford Handbooks (2014; online edn, Oxford Academic, 5 Dec. 2014),

¹⁶ Abror Zohidov. <https://kun.uz/>

tarqaladi.¹⁷ Bu tarmoqlar xalqaro transport yo'llaridan, korrupsiya va xufiyona moliyaviy tizimlardan foydalanib, davlatlararo chegaralardan osonlikcha o'ta oladi. Kun.uzning 27.06.2019 yildagi rasmiy vep sahifasida ommaga e'lon qilgan ma'lumotlariga ko'ra: BMTning Narkotik va jinoyatga qarshi kurash bo'yicha Markaziy Osipyodagi vakili vazifasini bajaruvchi Botir Keldiyevning ma'lumot berishicha, 2017 yilda 15-64 yosh oralig'idagi 271 million kishi, ya'ni dunyo aholisining 5,5 foizi narkotik modda iste'mol qilgan. Shulardan 35,3 millioni narkotik iste'molining og'ir oqibatlaridan aziyat chekkanligi (2016 yilda bu ko'rsatkich 30,5 million bo'lgan) takidlangan.

2.Odam savdosi

* Odam savdosi ham uyushgan jinoyatchilikning global tarmoqlaridan biri bo'lib, u odamlarni majburiy mehnat, jinsiy qullik, yoki boshqa shakllarda ekspluatatsiya qilishni o'z ichiga oladi.¹⁸ Bu jarayonlar ko'pincha rivojlanayotgan mamlakatlarda boshlanib, rivojlangan mamlakatlarga qadar yetib boradi. Jinoyatchilar o'z qurbanlarini aldash, qo'rqtish yoki zo'ravonlik yo'li bilan nazorat qiladi. BMT ma'lumotiga ko'ra, dunyoda har yili taxminan 2 million 700 ming kishi odam savdosining qurbaniga aylanmoqda. Xalqaro ekspertlarning baholashicha, ushbu jinoyatchilik natijasida olinayotgan yillik daromad miqdori 7 milliard AQSH dollaridan oshib ketgan. Tashvishlanarlisi, odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlarning 80 foizi ayol va bolalardir. Har yili dunyo bo'yicha 600–800 ming nafar ayol va bolalar aldov yo'li bilan xorijiy mamlakatlarga olib ketilib, sotib yuborilmoqda.

3. Quroq Savdosi

* Xalqaro quroq savdosi uyushgan jinoyatchilikning yana bir muhim tarmog'i hisoblanadi. Qurollar noqonuniy yo'llar bilan turli mamlakatlar va mintaqalarga yetkaziladi.¹⁹ Bu savdo, asosan, qurolli mojarolar, terrorizm va boshqa jinoyatlar bilan bog'liq bo'lib, davlatlararo tinchlik va xavfsizlikka jiddiy tahdid soladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, bиргина 2017-yil davomida 26 mingdan ziyod begunoh inson yovuzlik qurbanini bo'lgan. Mazkur holatlarning oldini olish maqsadida BMTga a'zo davlatlar tomonidan 21 avgust – «Xalqaro terrorizm qurbanlarini xotirlash va qadrlash kuni» deb qabul qilindi hamda ushbu xalqaro sana dunyo bo'ylab 5 yildan buyon nishonlab kelinmoqda. O'tgan 10 yilliklar shuni ko'rsatdiki, terrorizm dunyo bo'ylab ko'plab insonlarni o'z domiga tortib ketayotganining asosiy sababi jaholat va ma'rifatsizlikdir. Shu sababli dunyo bo'ylab ta'lim va ma'rifatga chorlov keng targ'ib qilinmoqda.

Ushbu sa'y-harakatlarga yaqqol misol sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMTning 2017 yildagi 72-sessiyasida «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik»

¹⁷ Smith, John. *Global Drug Trafficking: Issues and Solutions*. Oxford University Press, 2020

¹⁸ <http://pravacheloveka.uz/oz>

¹⁹ <https://www.pedagoglar.uz/index.php/ped/article/download/5928/4025/5621>

dasturi bo'yicha yangi tashabbus bilan ishtirok etganini ko'rsatish mumkin. Natijada 2018-yili BMT Bosh Assambleyasi «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» to'g'risidagi rezolyusiyani qabul qildi. O'zbekiston tomonidan terrorizmdan aziyat chekkan, uning domiga tushgan va terror harakatlari avj olib turgan hududlardan o'z fuqarolarini olib kelish maqsadida 2019-2021 yillarda «Mehr» insonparvarlik operatsiyasi 5 marta tashkil qilindi va 500 dan ortiq vatandoshlar Yaqin Sharq va Afg'oniston hududidan mamlakatimizga olib kelindi.²⁰ Siyosiy va mafkuraviy maqsadlar qurboni bo'lган ushbu shaxslarga davlat tomonidan tibbiy, psixologik, moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatildi. Ular jamiyat ijtimoiy hayotiga qo'shilib ketishlari uchun zarur sharoitlar yaratilib, turar joy va ish bilan ta'minlandi.

Raqamli texnologiyalar va internetning rivojlanishi bilan jinoyatchilikning yangi shakllari paydo bo'ldi. Bular ham uyushgan jinoyatchilikning bir turiga kiradi. Bu kiberjinoyatlar global miqyosda keng tarqalib, an'anaviy jinoyatlardan farqli ravishda, raqamli makonda amalga oshiriladi va jiddiy xavflarni keltirib chiqaradi.

1. Kiberhujumlar

* Kiberhujumlar zamonaviy dunyoda eng jiddiy tahdidlardan biriga aylandi. Bu hujumlar tarmoqlarga kirib, ma'lumotlarni o'g'irlash, shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish, yoki tizimlarni falaj qilish uchun amalga oshiriladi.²¹ Kiberjinoyatchilar davlat tashkilotlari, korporatsiyalar va shaxslar ma'lumotlarini nishonga olib, o'z maqsadlariga erishish uchun zararli dasturlar, fishing, yoki DDos hujumlari kabi usullardan foydalanadilar.

2. Darknetdagi Faoliyat

* Darknet internetning yashirin qismidir, bu yerda anonimlik ta'minlanib, turli noqonuniy faoliyatlar amalga oshiriladi. Darknetda narkotiklar, qurol-yarog'lar, o'g'irlangan ma'lumotlar va hatto odam savdosi kabi xizmatlar sotiladi.²² Bu raqamli bozorlar kiberjinoyatchilar va uyushgan jinoyatchilik guruhlari uchun yangi imkoniyatlarni yaratdi va an'anaviy jinoyatchilik tarmoqlarini raqamli maydonga ko'chirdi.

Kiberjinoyatchilikning kengayishi global xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda. U davlatlarning iqtisodiy va siyosiy barqarorligini buzish, fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini xavf ostiga qo'yish va global jinoyatchilik tarmoqlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu sababli, kiberxavfsizlikni kuchaytirish va kiberjinoyatlarni oldini olish davlatlararo hamkorlik va ilg'or texnologiyalarni talab qiladi.

²⁰ <http://insonhuquqlari.uz/oz>. Suhrob Aqnazarov

²¹ G'ulomov, S., & Normirzayev , F. (2023). ZAMONAVIY KIBERHUJUMLAR VA ULARGA QARSHI HIMOYA CHORALARI. *DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE*, 1(2), 116–125. Retrieved from <https://dtai.tsue.uz/index.php/dtai/article/view/v1i221>

²² Muxsinov , D. L. (2023). YASHIRIN TARMOQ DARKNET ORQALI SODIR ETILGAN IQTISODIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJUY TAJRIBANING O'RNI VA AHAMIYATI. *GOLDEN BRAIN*, 1(16), 31–41. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3701>

Uyushgan jinoyatchilik jamiyatning turli jihatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa madaniyat, axloq va ijtimoiy tuzilishga zarar yetkazadi.

1. Madaniyat va Axloqqa Ta'siri

* Uyushgan jinoyatchilik jamiyatda zo'ravonlik, qo'rquv vaadolatsizlik madaniyatini yoyishi mumkin. Bu jarayon jamiyatning axloqiy me'yorlariga zarar yetkazadi va qonuniylikka nisbatan ishonchksizlikni kuchaytiradi. Odamlar jinoyatchilikni oddiy va qabul qilinadigan hodisa sifatida ko'rishi mumkin, bu esa ijtimoiy norma va qadriyatlarni buzadi. Jinoyatchilik guruhlari ko'pincha yoshlar orasida ta'sir kuchiga ega bo'lib, ularni jinoyatga jalb etishi va nojo'ya hayot tarzini targ'ib qilishi mumkin.

2. Ijtimoiy Tuzilishga Ta'siri

* Uyushgan jinoyatchilik jamiyatdagi ijtimoiy tuzilmalarni zaiflashtiradi. Jamiyatdagi adolat, huquq-tartibot organlari va hukumat institutlariga bo'lган ishonch pasayadi. Bu esa ijtimoiy tizimning buzilishiga va odamlarning himoyasiz bo'lishiga olib keladi. Jinoyatchilik guruhlari ba'zida o'z hududlarida qudratli bo'lib, davlat vakolatlarini o'z zimmasiga olishga harakat qiladi, bu esa davlatning zaiflashishiga va ijtimoiy beqarorlikka olib keladi.

Uyushgan jinoyatchilik iqtisodiyotga ham jiddiy zarar yetkazadi, bu esa iqtisodiy o'sish va barqarorlikka to'sqinlik qiladi.

1. Korruptsiya

* Uyushgan jinoyatchilik guruhlari ko'pincha korruptsiya orqali o'z faoliyatlarini amalga oshiradilar. Bu esa davlat xizmatchilari va siyosatchilarni poraxo'rlikka tortadi. Korruptsiya natijasida resurslar noto'g'ri taqsimlanadi, davlat xizmatlari sifati pasayadi va iqtisodiyotning barqarorligi xavf ostiga qo'yiladi. Korruptsiya sharoitida kichik bizneslar o'sish imkoniyatlaridan mahrum bo'ladi, chunki ular jinoyatchilik guruhlariga "himoya puli" yoki boshqa turdag'i to'lovlarini to'lashga majbur bo'ladi.

2. Noqonuniy Iqtisodiyot

* Jinoyatchilik guruhlari noqonuniy iqtisodiyotning kengayishiga hissa qo'shami. Bu narkotiklar, qurollar, odam savdosi va boshqa noqonuniy mahsulotlar va xizmatlar savdosini o'z ichiga oladi. Noqonuniy iqtisodiyot rasmiy iqtisodiyotga zarar yetkazadi, chunki u soliq to'lovlarini chetlab o'tadi, shu bilan birga iqtisodiy barqarorlikka tahdid soladi.

3. Moliyaviy Firibgarlik

* Uyushgan jinoyatchilik moliyaviy firibgarlik va pul yuvish kabi jinoyatlarga jalb etilgan bo'lib, bu iqtisodiyotga katta zarar yetkazadi. Firibgarlik va pul yuvish moliyaviy tizimni zaiflashtiradi, investitsiyalarga to'sqinlik qiladi va iqtisodiy beqarorlikni kuchaytiradi.

Xulosa: Uyushgan jinoyatchilikning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari jamiyatni chuqur inqirozga olib kelishi mumkin. Buni oldini olish uchun davlatlar o'zlarining

huquqiy tizimlarini kuchaytirishi, korruptsiyaga qarshi choralar ko'rishi va jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИННИГ ЖИНОЯТ КОДЕКСИ УМУМИЙ ҚИСМ. VII боб. Жиноятда иштирокчилик. 29-модда. Иштирокчиликнинг шакллари
2. Raximov , N. . (2023). UYUSHGAN JINOYATCHILIK TUSHUNCHASI VA UNGA QARSHI KURASHNING AYRIM MASALALARI. Евразийский журнал права, финансовых и прикладных наук, 3(11), 77–80. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/23875>
3. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi –Haydarali Muhamedov. Toshkent-2005.
4. S. Isxakov, V. Topildiyev, A. Raxmanov. Rim huquqi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012, 161-bet.
5. Xamraqulov, Z. (2024). JINOYAT HUQUQI RIVOJLANISHINING IJTIMOIY-TARIXIY ASOSLARI. Farg'ona Davlat Universiteti, 30(3), 21. Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/3441>
6. Qurbanova Sevara. (2024). QADIMGI DUNYO DAVLATLARIDA JINOYAT HUQUQI. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI | JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION, 3(5), 101–104. Retrieved from <https://www.mudarrisziyo.uz/index.php/innovatsiya/article/view/897>
7. A. Mavlonov, & S. Mirzohidov (2024). THE CULT OF WATER IN THE ANCIENT BELIEFS OF THE UZBEKS OF THE FERGANA VALLEY. Science and innovation, 3 (C1), 5-7. doi: 10.5281/zenodo.10471818
8. Haydarov M.M. Tezkor-qidiruv faoliyatining tarixi va rivojlanish bosqichlari // Central Asian research journal for interdisciplinary studies. 2022, No2, - B.244 / DOI: 10.24412/2181-2454-2022-2-242-249.
9. Albanese, Jay S. (2014). Paoli, Letizia (ed.). The Italian-American Mafia. Oxford University. [doi:10.1093/oxfordhb/9780199730445.001.0001](https://doi.org/10.1093/oxfordhb/9780199730445.001.0001). ISBN 9780199730445.
11. Tohir Malik. Shaytanat. – Toshkent.: Hilol-nashr, 2017.
12. Mavlonov, A. (2021, June). WATER CULT IN ANCIENT RELIGIOUS BELIEFS (Based on materials from the Fergana Valley). In Конференции.
13. Xamraqulov, Z. (2024). JINOYAT HUQUQI RIVOJLANISHINING IJTIMOIY-TARIXIY ASOSLARI. Farg'ona Davlat Universiteti, 30(3), 21. Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/3441>
15. <https://www.britannica.com/>

- 16.Paoli, Letizia, 'The Italian Mafia', in Letizia Paoli (ed.), The Oxford Handbook of Organized Crime, Oxford Handbooks (2014; online edn, Oxford Academic, 5 Dec. 2014),
- 17.Abror Zohidov.<https://kun.uz/>
- 18.Smith, John. Global Drug Trafficking: Issues and Solutions. Oxford University Press, 2020
- 19.<http://pravacheloveka.uz/oz>
- 20.<https://www.pedagoglar.uz/index.php/ped/article/download/5928/4025/5621>
- 21.<http://insonhuquqlari.uz/oz>. Suhrob Aqnazarov
- 22.G'ulomov, S., & Normirzayev , F. (2023). ZAMONAVIY KIBERHUJUMLAR VA ULARGA QARSHI HIMOYA CHORALARI. DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE, 1(2), 116–125. Retrieved from <https://dtai.tsue.uz/index.php/dtai/article/view/v1i221>
- 23.Muxsinov , D. L. (2023). YASHIRIN TARMOQ DARKNET ORQALI SODIR ETILGAN IQTISODIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJY TAJRIBANING O'RNI VA AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 1(16), 31–41. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3701>
24. Baldwin, Lida F. (1907). "Unbound Old Atlantics". [The Atlantic Monthly](#). C (November 1907)